

**XXI - ASR XALQARO MUNOSABATLARNING DOLZARB MASALALARI.  
YADRO QUROLLARINING YARATILISHI, OQIBATLARI VA YADRO  
QUROLLARI MASALALARIDA O'ZBEKISTONNING QARASHI**

**Boirbekova Malikaxon Azizbek qizi**

*Alfraganus universiteti "Xalqaro munosabatlar" yo'nalishi 2 kurs talabasi*

**Ilmiy rahbar: Abdurahmanov Xolboy To'xtayevich**

*Alfraganus universiteti o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XXI- asr Xalqaro munosabatlardagi dolzarb masalalar, yadro qurollari bilan bog'liq havfsizlik tahdidlari, yadro qurollarining yaratilish sabablari, oqibatlari, O'zbekistonning yadro qurollariga nisbatan qarashlari tahlil qilinadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin yadroviy qurollar masalasi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ba'zi davlatlar o'z hafsizliklarini ta'minlashda o'z yadro qurollariga ega bo'lishga urinmoqdalar.

**Kalit so'zlar:** yadro bo'mbasi, qita'lararo ballistik raketalar, shikastlash vositasi, yerning suniy yo'ldoshlari, yadro ballaklari.

**Аннотация:** В статье анализируются актуальные проблемы международных отношений в XXI веке, угрозы безопасности, связанные с ядерным оружием, причины и последствия создания ядерного оружия, а также взгляды Узбекистана на ядерное оружие. После Второй мировой войны проблема ядерного оружия стала одной из актуальных. Некоторые страны пытаются обзавестись собственным ядерным оружием, чтобы обеспечить свою безопасность.

**Ключевые слова:** ядерная бомба, межконтинентальные баллистические ракеты, средства поражения, искусственные спутники Земли, ядерные боеголовки.

**KIRISH:**

Yadro quroli — shikastlash vositasi yadro zaryadidan iborat bo'lgan qurol. Yadro reaksiyasi natijasida vujudga keladigan portlash (atom yadrosining zarrachalarga bo'linishi), zarrachalar sintezi yoki ikkala jarayonning bir vaqtda sodir bo'lishi vaqtida ajralib chiqadigan ichki energiyadan foydalanishga asoslangan yadro bombasi, uni nishonga yetkazish vositasi (raketa, torpeda, samolyot, artilleriya to'pi) va bombaning nishonga aniq borib tushishini ta'minlaydigan boshqarish qurilmalaridan iborat. Yadro quroli yadro energiyasining olinish usuliga qarab, yadro va termoyadro (vodorod) qurollariga bo'linadi. Yadro o'qdorilariga aviatsiya bombalari, artilleriya snaryadlari,

raketalarining jangovor qismlari, dengiz torpedalari, suv osti bombalari va minalari (atom fugaslari) kiradi. [1] Yadro quroli zarb to'liqini, yorug'lik nurlanishi, singuvchi radiatsiya va radioaktiv zaharlash va boshqalar turli shikastlantiruvchi ta'sirlarga ega. Yadro snaryadlarining quvvati trotil ekvivalenti bilan tonna, kilotonna (1 kt — 1000 t) yoki megatonna (1 Mt— 1 mln. t) larda o'lchanadi. Yadro quroli quvvatiga qarab, kichik quvvatli (15 kt gacha); o'rta quvvatli (15—100 kt), katta quvvatli (100—500 kt), juda katta quvvatli (500 kt dan yuqori) qurollarga bo'linadi. Yadro quroli havoda, yer (suv) ustida, yer (suv) ostida portlashi mumkin (yana qarang Yadro portlashi). Yadro quroli taktik va strategik jihatdan farqlanadi. Taktik qurollarga turli masofaga uchuvchi boshqariladigan va boshqarilmaydigan reaktiv snaryadlar (raketalar), samolyotlar, suv osti kemalari, shuningdek, yadro zaryadi tashuvchi yirik kalibrli stvolli artilleriya kiradi. Taktik va strategik qurollar o'rtasida keskin chegara yo'q, ba'zi sharoitlarda taktik maqsadlar uchun mo'ljallangan yadro zaryadlari strategik jahatdan ham qo'llanishi mumkin. Yirik strategik nishonlarni shikastlantirish uchun mo'ljallangan yadroning jangovar qismlari 1—5 mln. t (hatto 40—50 mln. t gacha) trotil ekvivalentiga ega bo'lishi mumkin. [1/2]

#### **ASOSIY QISM:**

Strategik yadro qurollarini eltuvchilar uzoqqa uchuvchi raketalar, qit'alararo ballistik raketalar, samolyotsnaryadlar va strategik bombardimonchi samolyotlardir. Qudratli yadro zaryadlarini nishonga eltishda Yerning sun'iy yo'ldoshlaridan foydalanish rejasi ham bor.

Yadroviy qurol 20-asrda yadro fizikasining taraqqiy etishi munosabati bilan 40-yillar boshida paydo bo'ldi. Birinchi portlash 1945-yil 16-iyulda Alamogodro poligonida (AQSH) amalga oshirildi. 1945-yil avgust oyida esa har birining quvvati 20 kt bo'lgan 2 atom bombasi Yaponiyaning Xirosima (6-avgust) va Nagasaki (9-avgust) shahrilariga tashlandi. Sobiq SSSR da termoyadro bombasi birinchi marta 1953-yil 12-avgustda sinab ko'riladi. [3]

Atom bombasini ilk marta 1943–1944 yillarda ikkinchi jahon urushida yengilayotgan nemis olimlari loyihalashtira boshlagan. Urushda SSSR va ittifoqchilar armiyasi Germaniya qo'shinlarini ikki tomondan siqib kela boshlagach nemislar «dahshatli qurol» yaratish bo'yicha olib borayotgan loyihasini oxiriga yetkaza olmaydi.

Shundan so'ng loyiha ma'lumotlari AQSh razvedkasi tomonidan o'g'irlab ketiladi va ilk yadro qurollari Amerikada yaratiladi.

1945 yilda AQSh harbiy havo kuchlari urushda yengilayotgan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashlaydi va ilk sinovni shu tarzda o'tkazadi. Portlash natijasida har ikki shaharda 100 minglab odam halok bo'ladi, tirik qolganlar nogiron bo'lib qoladi va uzoq yashamaydi.

Shundan keyin dunyodagi asosiy raqobatchisidan ortda qolishni xohlamagan SSSR okean ortida ishlagan o'z ayg'oqchilari yordamida AQShdan yadro quroli loyihasini qo'lga kiritadi. 1949 yilda bu davlatda ham ilk yadro quroli sinovi o'tkaziladi. [3]

Keyinchalik SSSR mutaxassislari Xitoyda yadro quroli yaratilishida ishtirok etadi. Fransiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Pokiston hamda Shimoliy Koreya o'z yadro qurollariga ega bo'ladi. Shuningdek, Eron va Isroilda yadro qurollari bor deb taxmin qilinadi. Shu tariqa XX asr oxirigacha dunyoning 10 ta mamlakati yadro qurollariga ega bo'lgan deb hisoblanadi.

- Rasmiy nomi Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bo'lgan Shimoliy Koreyada 30 tadan 60 tagacha jangovar yadro kallaklari borligi aytiladi.

Yaqin Sharqda joylashgan Isroilda 80-90 ta jangovar yadro kallaklari borligi, bu davlat tomonidan ilk yadro sinovi ham, so'nggisi ham 1979 yilda o'tkazilgani aytiladi.

- Hindistonda 120-150 ta jangovar yadro kallaklari borligi aytiladi. Bu davlatda ilk yadro sinovi 1974 yilda, so'nggisi 1998 yilda o'tkazilgan.

- Pokistonda 130-160 ta jangovar yadro kallaklari bor deyiladi. Bu davlat ilk yadro sinovini ham so'nggisini ham 1998 yilda o'tkazgan.

- Buyuk Britaniyada 200 ta jangovar yadro kallaklari borligi aytiladi. Bu davlat ilk yadro sinovini 1952 yilda, so'nggisi 1991 yilda o'tkazgan.

- Chin yurtida 320 ta jangovar yadro kallaklari borligi aytiladi. Xitoy ilk yadro sinovini 1964 yilda, so'nggisini 1996 yilda o'tkazgan.

Xitoy dunyodagi yadro qurollari yo'q davlatlarga yadro quroli bilan hujum va tahdid qilmaslik haqida qaror chiqargan yagona mamlakat hisoblanadi.

- Fransiya 280-300 ta jangovar yadro kallaklari borligi aytiladi. Bu davlat ilk yadro sinovini 1960 yilda, so'nggisini 1995 yilda o'tkazgan.

- AQShda 5 800 ta jangovar yadro kallaklari borligi aytiladi. Ammo 2020 yil 30 sentyabrda AQSh davlat departamenti bu davlatda 3 750 ta faol va nafaol yadro kallaklari borligini ma'lum qildi.

- Rossiyada 6 400 ta jangovar yadro kallaklari borligi aytiladi. Bu davlat ilk yadro sinovini 1949 yilda, so'nggisini 1990 yilda o'tkazgan. SSSR tarqab ketgandan so'ng Rossiya yadro qurollarini sinovdan o'tkazgani haqida ma'lumotlar yo'q.

Uning shikastlantiruvchi va vayron qiluvchi ta'siri bir vaqtda zarb to'liqini, yorug'lik nurlanishi, singuvchi radiatsiya, radioaktiv zaharlanish va elektromagnit impuls orqali sodir bo'ladi. Zarb to'liqini yo'lida uchragan barcha ob'yektlarga ta'sir qiladi. Yorug'lik nurlanishi turli moddalarni eritib, kuydirib, yondirib yuboradi. Singuvchi radiatsiya (gammanurlar va neytron oqimi) nurlanish kasalligini keltirib chiqaradi. Radioaktiv zaharlanish Yadro portlashida paydo bo'ladigan bulutdan radioaktiv moddalarning tushishi natijasida hosil bo'ladi va u ham nurlanish kasalligiga olib keladi. Elektromagnit

impuls antennalar, simlar, kabel liniyalari, aloqa vositalariga ta'sir qilib, ularni ishdan chiqaradi.

O'zbekistonning butun jahonda tan olingan va qo'llab-quvvatlangan yirik xalqaro takliflari qatorida Markaziy Osiyoni yadroviy quroldan holi zonaga aylantirish tashabbusi o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu g'oya prezident Islom Karimov tarafidan 1993 yilning 28 sentabrida BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ilgari surilgan. Tadbir ishtirokchilariga murojaat qilar ekan, O'zbekiston rahbari shunday dedi: "O'zbekiston yadroviy qurolni butunlay yo'q qilish, yadroviy qurolni tarqatmaslik bo'yicha shartnoma muddatining uzaytirilishi va boshqa samarador choralar tarafdoridir. Respublika Markaziy Osiyoni yadrodan holi zona deb e'lon qilish tarafdoridir". [4/5]

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, yadro qurollari masalasi XXI-asr xalqaro munosabatlarida eng dolzarb va xavfli muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Yadro qurolining yaratilishi insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solgan bo'lsa-da, hozirgi global hamkorlik va diplomatik sa'y-harakatlar bu xavfni kamaytirish imkonini bermiqda. O'zbekiston Respublikasi yadro qurolsizlanish masalasida faol va prinsipial pozitsiyani egallab, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'lida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hudud sifatida e'tirof etilishi O'zbekiston tashqi siyosatining muvaffaqiyatli natijalaridan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT minbaridagi nutqlari va yadro qurolsizlanish borasidagi bayonotlari (2017–2023-yillar).
4. United Nations. Treaty on the Non-Proliferation of Nuclear Weapons (NPT). – New York: UN, 1968.
5. <https://nauchniyimpuls.com/index.php/obrazovaniya/article/download/1679/1301/2563>